

## MATEMATIK BILIMNI BAHOLASHNING USTUVOR MEZONLARI

*Elliyev Hamza Kuvatovich*

*Qorako'l tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va  
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari*

**Annotatsiya:** Baholash jarayoni aniq maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Ushbu maqolada maktab ta'limida o'quvchilar bilimini baholashning ustuvor holatlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim standartlari, matematik tahlil, ta'lim, funksiya, test, pedagogik nazorat.

Ta'limning sifati - uning mazmunini takomillashtirishga bevosita bog'liq bo'lsa-da, bunda asosiy masala o'quvchilar bilimini baholash bo'lib qoladi. Bu borada xalqaro tajribalarga tayanib ish ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, baholash umumiy o'rta ta'limda ta'lim oluvchilarning o'qitish jarayonida Davlat ta'lim standartlari va O'quv dasturlarida belgilangan malaka talablarini egallash darajasini aniqlovchi, tekshiruvchi mexanizm hamda mezon va tartiblardir. Pedagogik nazorat ta'lim jarayonida bir qancha vazifa va funksiyani bajaradi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, pedagogik nazorat quyidagi vazifalarga ega:<sup>1</sup>

Baholash tizimining ta'lim jarayonidagi asosiy vazifalarini quyidagicha muayyanlashtirish mumkin: o'zlashtirish darajasini aniqlash; bilim olishga qiziqishni rag'batlantirish; o'quvchining javobidagi xatoni ko'rsatish; bilim, ko'nikma va malakaning mustahkamlab borilishini ta'minlash; o'quvchining doimiy ravishda darsga tayyor holda kelishiga erishish; o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini o'zaro taqqoslash; o'quvchida akademik ko'nikma

---

<sup>1</sup> J.Hasanov va boshqalar. Pedagogika. –Toshkent. "Noshir", 2011. 488 b. (398)  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

axborot bilan ishlash, axloqiy yetuklik, matematik savodxonlik kabi sifatlarni shakllantirish; ta'lif jarayonida o'quvchilar orasida o'zaro do'stona raqobat muhitini yaratish; bilim, ko'nikma va malaka shakllanishidagi ehtimoliy bo'shliqlarni aniqlash va ularni bosqichma-bosqich bartaraf etish; bilim, ko'nikma va malaka rivojlanib borishini doimiy ravishda tahlil qilib borish; o'quvchining to'laqonli bilim olishi uchun qulay pedagogik-psixologik muhitni yaratishga erishish; o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasini baholashda xolislikka erishish; o'quvchining ahamiyatli, amaliy bilim, ko'nikma va malakasini baholashni ta'minlashga erishish; o'quvchini baholashda qulay metoddan foydalanishga erishish; o'quvchini bilim, ko'nikma va malaka saviyasiga ko'ra saralash; o'quvchini ta'larning keyingi bosqichiga tayyorlash; davlat ta'lif standartida belgilangan malaka talablarning bajarilishini nazorat qilib borish.

Baholash jarayoni aniq maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Ana shu belgilangan maqsadga muvofiq baholash jarayonida tekshiriladigan domen, sub-domen, konstrukt va topshiriqlar soni va metodikasi hamda baholash mezonlari belgilab olinadi. Shuning uchun, avvalo, baholashdan qanday maqsad ko'zlanganini aniqlab olish va shunga ko'ra baholashni loyihalashtirish lozim.

Jamiyatning, axborot muhitini va mehnat bozoridagi holatni jadal rivojlanishi natijasida matematikaga oid reproduktiv ta'lif tizimi samarasiz bo'lib qolmoqda<sup>2</sup>. Shu bois, o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash uchun matematikani o'qitishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqilishini talab qilmoqda.

TIMSS – (Trends in International Mathematics and Science Study) mактабда математика ва табиий фанларни о'qitish сифатининг халқаро мониторинги бо'lib, ta'lif yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) томонидан ташкіл yetiladi. Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining математика ва табиий фанлар bo'yicha egallagan bilim darjasи, сифатини solishtirish hamda milliy ta'lif tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Mazkur dasturning o'ziga xosligi shundaki, u dunyodagi

---

<sup>2</sup> Тожиев М., Зиёмуҳаммедов Б. Миллий таълим тарбия жараёнига татбиғи ва уни ёшлар интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдаги ўрни технологиялари Тошкент: "MUMTOZ SO'Z" 2001. -268 б.

maktablarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilarining bilim darajasi, tahsil oluvchilarining oilaviy muhiti bilan bog'liq omillarni o'rganadi. Ko'rsatib o'tilgan omillar matematika fanlarini o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'lib xizmat qiladi<sup>3</sup>.

Ilmiy adabiyotlarda baholash (pedagogik nazorat) kim tomonidan o'tkazilishiga ko'ra, yakuniy davlat attestasiyasi, ichki nazorat, jamoa nazorati va tashqi nazorat<sup>4</sup> kabi turlarga ajratiladi. Shu bilan birga, har bir fan bo'yicha o'quvchilarining o'zlashtirishini baholash mavzular qamroviga ko'ra joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlariga ajratiladi<sup>5</sup>. Juhon tajribasida baholash nazariyasi mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan, ta'lim jarayonida baholashning bir qancha turidan foydalilaniladi. Xususan, pedagogik o'lchovga oid tadqiqotlarda baholashning formativ, diagnostik, dinamik, sinoptik, ipsativ, kompleks, normaga asoslangan, mezonlarga asoslangan, summativ turlari ajratilgan.

Summativ baholash o'quvchilarining muayyan fan yoki fanlar yuzasidan o'quv choraklari davomida, yoki muayyan o'quv yili davomida yoki butun umumiy o'rta ta'lim davomida o'zlashtirgan, egallagan BKM va kompetensiyalarini tekshirish, baholash jarayoni. Bunga choraklik baho uchun o'tkaziladigan sinovlar, o'quv yili davomida o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash uchun o'tkaziladigan imtihonlar, yakuniy davlat attestasiyasi sinovlari hamda oliy ta'limga qabul imtihonlari kiradi. Bunday sinovlarni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini sinash, xulosalash hamda saralash, keyingi ta'lim bosqichiga o'tishi uchun tanlov vazifasini o'tash kabilar. Shuning uchun ham bunday sinovlarning ta'limga ta'siri sezilarli<sup>6</sup>.

---

<sup>3</sup> <https://inlibrary.uz/>

<sup>4</sup> Каримов Р.К. Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари мониторингини таъминлашнинг педагогик асослари: пед.фан.номз. ... дис. –Т.: 2006.40 б.

<sup>5</sup> X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). Т., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet. 252

<sup>6</sup> Абдираимов Ш. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолашнинг илмий-методик асослари. Пед.фан.фал. док. Дисс. –Тошкент. 2022. 14-б.

Darsliklarni o'quvchilarning o'quv topshiriqlarini o'zlashtirishlarini osonlashtiradigan rasm, sxema, diagramma va grafiklar bilan yana ham ko'proq boyitish zarur. Bu esa darslik hajmining va unga sarflanadigan mablag'ning ortib ketishiga olib keladi. Bunday holatda darsliklarni ikkiga bo'lib nashr qilish yoki muqobil darsliklarni yaratish lozim. Chunki, darsliklardagi o'quv materiallari qanchalik rang-barang bo'lsa va undan ta'lif jarayonida tizimli foydalanilsa, o'quvchilarning fanga qiziqishi ham ortib boradi. Baholashga ham qulay bo'ladi.

So'nggi yillar davomida umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun darsliklarning yangi avlodini va unga mos o'quv-uslubiy majmular yaratish sohasida umum davlat miqyosida katta ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunga kelib esa kompetensiyaviy yondashuv talablaridan kelib chiqqan holda darsliklarning takomillashtirilgan o'quv dasturlariga mos bo'lishi va o'zida ta'lif mazmunini yangilovchi, shuningdek, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan demokratik modellarini ifodalash taqozo qilinmoqda. Chunki, ta'lif mazmunining yangi modellarida davlat va jamiyatning ta'lif jarayoni oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lifning amaldagi ta'lif kontekstida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalari asosan test topshiriqlari yordamida tekshirib, baholanib kelmoqda. Shu bilan birga, ta'lif tizimida qariyb 30 yillik testdan foydalanish tajriba bo'lsa-da, test metodikasi takomillashtirilmadi. "Test" deyilganda, faqat yopiq testlar – to'rtta variantli muqobil javobli testlar tushunildi hamda faqat shundan foydalanildi. Testologiyada testning metodikasi, tuzilishi va mazmuniga ko'ra bir qancha turi mavjud: 1) yopiq test; 2) ochiq test; 3) amaliy test<sup>45</sup>. Testlarning bir qancha turlari bo'lsa-da, ammo ta'lif kontekstida turli test topshirig'i qo'llanmadni, mazmuni va metodikasi takomillashtirilmadni, mavzu doirasida deyarli tadqiqot olib borilmadni. Bu yillar davomida bitiruvchi sinflarning fanlar yuzasidan ko'nikma va malakalarini tekshirish yuzasidan muammolar to'planib qolishiga olib keldi. Davlat boshqaruv tizimi yangilanishi bilan bir qatorda barcha sohalarda islohotlar ketmoqda. Ta'lif bilan bog'liq xalqaro baholash monitoring tizimlarida (PIRLS, PISA, TIMSS, ICILS) o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur baholash dasturlarining

namunaviy test topshiriqlari yordamida o'tkazilayotgan tajriba-sinovlari natijalari test tizimining mazmuni va metodikasi bo'yicha bir qancha vazifalarni oldimizga qo'ymoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, matemetik savodxonlikni rivojlantirish va baholash masalasida xorijiy mamlakatlar, xususan, Finlandiya tajribasini qo'llash samarali natija beradi. Fin tajribasida o'quvchilarning individual imkoniyatlarini ochish, xolis va adolatli baholash mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdiraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.fal. dok. Diss. –Toshkent. 2022. 14-b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017-y. -45 b.
3. Tojiev M., Ziyomuhamedov B. Milliy ta'lim tarbiya jarayoniga tatbig'i va uni yoshlari intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni texnologiyalari Toshkent: "MUMTOZ SO'Z" 2001. -268 b.
4. Karimov R.Q. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari monitoringini ta'minlashning pedagogik asoslari: ped.fan.nomz. ... dis. –T.: 2006.40 b.
5. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., "Fan va texnologiya", 2008, 288 bet. 252.
6. Abdiraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.fal. dok. Diss. –Toshkent. 2022. 14-b.